

**«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING
NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHI
90-SONLI BAYONIdan ko‘chirma**

Umumiy yig‘ilish Toshkent shahri, Sh. Rashidov shoh ko‘chasi, 4 uyda o‘zi kelgan holda yoki videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkazildi.

Yig‘ilishda kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlar ishtirok etdilar.

Yig‘ilish o‘tkazilgan sana:	2026-yil 7-yanvar
Ro‘yxatga olish boshlangan vaqt:	soat 14:45
Ro‘yxatga olish tugagan vaqt:	soat 14:55
Yig‘ilish yopilgan vaqt:	soat 15:50
Bayon tuzilgan sana:	2026-yil 17-yanvar

**O‘zRVB aksiyadorlarining jami ovozlari soni – 1 069 600 ta.
Jumladan:**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki	- 536200
«O‘zbekiston sanoat – qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki	- 119000
O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	- 119000
«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki	- 95200
«Ipak Yo‘li» aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki	- 95200
«Orient Finans» xususiy aksiyadorlik tijorat banki	- 61600
O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki	- 43400

Yig‘ilishda qatnashgan aksiyadorlar 1 069 600 ta ovozga ega bo‘lib, bu jami ovozlarning sonining 100 foizini tashkil etadi.

KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. O‘zRVB sanoq komissiyasi a‘zolarining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
3. O‘zRVB Kuzatuv kengashi saylangan a‘zolarining vakolatlarini muddatidan oldin to‘xtatish.
4. O‘zRVB Kuzatuv kengashiga yangi nomzodlarni saylash.
5. «O‘zRVB» AJ ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahririni tasdiqlash.
6. «O‘zRVB» AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomga kiritiladigan o‘zgartirishni tasdiqlash.

**O‘zRVB aksiyadorlarining ovoz berish byulletenlari asosida
O‘zRVB aksiyadorlari navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining quyidagi
qarori qabul qilindi:**

1. O‘zRVB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi “O‘zRVB” AJ aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishlarida va kuzatuv kengashi yig‘ilishlarida videokonferens-aloqa rejimida ishtirok etish to‘g‘risida”gi reglamentga muvofiq o‘zi borgan holda yoki videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkazilsin va aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishini olib borish, masalalarni ko‘rib chiqish tartibi quyidagicha tasdiqlansin:

- ma’ruzachilarga asosiy masalalar bo‘yicha chiqish uchun ajratilgan vaqt – 10 daqiqagacha;

- qo‘shimcha fikr bildirishlar va tortishuvlar uchun ajratilgan vaqt – 5 daqiqagacha;

- savol va javoblar uchun ajratilgan vaqt – 5 daqiqagacha.

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

2. O‘zRVB sanoq komissiyasi 3 kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

Prokudina K.A. - Budgetlash va moliyaviy tahlil bo‘limi boshlig‘i – Bosh buxgalter

Xudoyberdiyev J.B. - Boshqarma boshlig‘i

Umurzakov O.E. - Bosh yuriskonsult

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

3. O‘zRVB Kuzatuv kengashi raisi Olimov Abror Mirzo Muhammadqosimovichning hamda O‘zRVB Kuzatuv kengashi a‘zosi Adilov Alimardon Abdurazakovichning vakolatlari muddatidan oldin to‘xtatilsin.

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

4. O‘zRVB Kuzatuv kengashiga quyidagi nomzodlar ovoz berish natijalariga ko‘ra 2028-yilda o‘tkaziladigan aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga qadar saylansin:

Achilov Nodirbek Muxammadiyevich - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisining o‘rinbosari.

Usmonaliyev Humoyun Taxirzoda - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Monetar operatsiyalar departamenti direktori v.b.

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

5. “O‘zRVB” AJ ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng kuchga kiritilsin.

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

6. “O‘zRVB” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomga kiritiladigan o‘zgartirish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda “O‘zRVB” AJ ustavi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng kuchga kiritilsin.

Tarafdorlar – 1 069 600 ta ovoz, qarshilar – yo‘q, betaraflar – yo‘q.

Yig‘ilish raisi: imzo **A. Olimov**

Yig‘ilish kotibi: imzo **O.X. Djurayev**

Bosh direktor: imzo **R.R. Usmanov**

Asliga ko‘ra to‘g‘ri:

J. Xudoyberdiyev